

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

JO‘RAYEVA GO‘ZAL QODIROVNA

FIROQIY VA UNING ADABIY MEROSI

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti

**FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2025

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on philological
sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

Jo‘rayeva Go‘zal Qodirovna Firoqiy va uning adabiy merosi	3
Джураева Гузал Кадыровна Фираки и его литературное наследие	27
Jorayeva Gozal Kadirovna Firoqi and his literary heritage.....	51
E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati List of published works Список опубликованных работ.....	56

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

JO‘RAYEVA GO‘ZAL QODIROVNA

FIROQIY VA UNING ADABIY MEROSI

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti

**FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2025

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B.2022.2.PhD/Fil2433 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Tadqiqot Qo'qon davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Farg'ona davlat universiteti veb-sahifasida (www.fdu.uz) hamda "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Qobilova Zeboxon Bakirovna
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Tojiboyeva Muqaddas Abdurahimovna
filologiya fanlari doktori, professor

Xo'janova Gulchehra Uralovna
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Namangan davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019 Fil.05.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "12" 04 soat 10.00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100151 Farg'ona sh, Burhoniddin Marg'inoniy ko'chasi, 105-uy. Tel.:(998973) 244-57-82; e-mail: info@fdu.uz).

Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. 489
Manzil: 100151, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19. Tel.: (99873) 244-44-94.

Dissertatsiya avtoreferati bilan 2025-yil " 25 " 03 kuni tarqatildi.
(2025-yil " 25 " 03 dagi 17 -raqamli reyestr bayonnomasi)



S.M.Muminov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filol.f.d., prof.

M.T.Zokirov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, filol. f. n., prof.

Z.A.Rahimov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filol.f.d., dots.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligida o'z e'tiqodiy tafakkuriga tayanib, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy, axloqiy-ta'limiy, ilohiy-irfoniy qarashlarini badiiy aks ettirgan ijodkorlarning salmog'i ko'p. Uzoq yillardan buyon ularning hayoti va ijodiy faoliyati yuzasidan bir qator tadqiqotlar maydonga keldi va bu jarayon hanuz davom etmoqda. Yuzaga kelgan ilmiy izlanishlar shundan dalolat qiladiki, Sharq xalqlarining aksariyati she'riyat bilan oshufta bo'lib hayot kechirgan, she'riyat ularning qoniga go'dakligidanoq singib ulgurgan. Biroq uzoq va yaqin o'tmishda ijod qilgan qalamkashlarning katta qismi yashagan davridanoq badiiy barkamol asarlari bilan adabiyot ixlosmandlari ko'ngil olamiga kirib borgan bo'lsalar-da, adabiy merosi uzoq yillar davomida ilm ahllarining e'tiboridan chetda qolib keldi, tadqiqot manbaiga aylanmadi. Natija o'laroq, bunday shoirlar poetik mahoratini birlamchi manbalar asosida ilmiy o'rganish bugunga kelib dolzarb vazifalardan biriga aylanib qoldi.

Dunyo adabiyotshunosligida ma'lum bir qalamkashning poetik mahoratini belgilashda ana shu mahoratni yuzaga keltirgan obyektiv va subyektiv omillar mavjudligi e'tirof etilmoqda va bunga davrning ijtimoiy-siyosiy voqeligi, adabiy merosida e'tiqodiy qarashlarining in'ikos etishi, adabiy an'anaga munosabati va shunga bog'liq ravishda paydo bo'lgan shaxsiy tajdid, qalamkashning uslubi singari masalalarga alohida e'tibor qaratilayotganligi shundan. Ayniqsa, devon adabiyoti atalmish mumtoz she'riyatga e'tibor tubdan o'zgarib, tadqiqotchilikning bu yo'nalishida muayyan siljishlar ro'y bermoqda. Bu jarayon shoirlar devonlarini qiyosiy o'rganish, ularning ijodiy merosi ko'lamini aniqlash, she'rlarining janriy tarkibini belgilash, shoirlarning turli lirik janrlardagi poetik mahorati, she'riyatining mavzu va obrazlar olami, ularning tavsif va tasnifi, vazn, qofiya, badiiy san'atlardan foydalanishdagi poetik mahoratini tadqiq etish aspektida yuzaga chiqmoqda.

Milliy istiqbolimizning dastlabki yillaridanoq mumtoz adabiyotimizning tayanch g'oyaviy manbalari Qur'oni Karim, Hadisi sharif va tasavvuf ta'limoti ekanligi, bularning barchasi milliy qadriyatlarimizning asosini tashkil etishi e'tirof etila boshlanganligi ma'lum. Bugungi kunga kelib mumtoz va zamonaviy adabiyotimizda asrlar davomida o'lmas mavzu bo'lib kelgan irfoniy va dunyoviy tafakkur mevalari bo'lgan she'riyat yangicha andozalar asosida tadqiq qilinishiga yo'l ochildi, ulardagi barcha yo'nalishlarga xolis munosabat bildirish tamoyili ustuvor bo'lib bormoqda. Bu keng imkoniyat hayot yo'li va asarlari turli sabablar bilan tadqiq qilinmagan o'nlab qalamkashlarning ijodini Yangi O'zbekistonda, Uchinchi Renessans davrida o'rganilayotganligi bilan belgilanadi. Bular orasida o'zining turli mavzu yo'nalishlaridagi she'riyati bilan Qo'qon shoirlari orasida muhim o'rin tutgan Do'stmuhammad Firoqiyning borligi ham e'tiborga molik. Zero, hozirgi kunga kelib xalqimiz orasidan yetishib chiqqan shoirlar merosini o'rganish, xususan, adabiyotshunoslar e'tiboridan chetda qolib turgan ijodkorlar asarlariga murojaat qilish birlamchi vazifaga aylanib bormoqda. Chunki har bir xalqning madaniy-ma'naviy merosi to'lig'icha o'rganilsagina, shu adabiyotning

mukammalligi tayin bo‘ladi. Qolaversa, muhtaram Prezidentimizning “Adabiyot va san’atga, madaniyatga e’tibor – bu avvalo xalqimizga e’tibor, kelajagimizga e’tibor”¹ degan o‘g‘itlari Firoqiy she’riyati, bu she’rlarning poetik xususiyatini yangicha andozalarda o‘rganish dolzarb masalalardan ekanligini tasdiqlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqei tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2017-yil 24-maydagi PF-126-son “Qadimiy yozma manbalarni saqlash va tadqiq etish tizimini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, 2017-yil 13-sentabrdagi PQ-3271-son “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida” gi Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. “Hiroat adabiy muhitidan afzal o‘laroq, Qo‘qon adabiy muhitida o‘zbek tilida yaratilgan adabiy asarlarning salmog‘i hamda o‘zbekzabon shoirlarning miqdori oshib bordi. Natijada, ushbu davrda 20 dan ortiq sohibdevon o‘zbek shoirlari mumtoz she’riyatimizni boyitishga baholi qudrat hissa qo‘shdilar. Ammo bu shoirlarning aksar qismining ijodi haligacha o‘z tadqiqotchilarini kutib qolmoqda”².

Endilikda o‘zbek adabiyoti tarixida alohida hodisa bo‘lgan Qo‘qon adabiy muhitiga qiziqish, ijodkorlarini kashf etish, mazkur adabiy muhitning yetakchi tamoyillarini aniqlash, yaratilgan asarlarning g‘oyaviy-badiiy xususiyatlarini tadqiq etish adabiyotshunoslikning doimiy diqqat markazida bo‘lib kelmoqda.

Qo‘qon adabiy muhiti haqida fundamental tadqiqot yaratgan olim, shubhasiz, akademik Aziz Qayumovdir³.

XX asr boshlaridan hozirgi kunga qadar bu yo‘nalishda qator tadqiqotlar amalga oshirildi. L.Qayumov, A.Madaminov, R.Tojiboyev, E.Ibrohimova, N.Jabborov, I.Adizova, Z.Qobilova, A.Dehqonov, D.Zohidova, A.Turdaliyev, M.Siddiqov, D.Abdullayeva, O.Jo‘raboyev, N.Muhiddinova, Q.Pardayev, A.Muhammadiyev, I.Sulaymonov, S.Eshonova, T.Toshboltayeva, S.Eshonqulova, M.Djurayev singari adabiyotshunos olimlarning ilmiy tadqiqotlari bunga yorqin

¹Мирзиёев Ш.М. Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустақкам пойдевори. – Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг Ўзбекистон ижодкор зиёлилари вакиллари билан учрашувдаги маърузаси //Халқ сўзи, 2017, 4 август.

² Мухиддинова Н. Ғозий ва Садоий шеърлятида салафлар анъаналарининг поэтик такомилли. Филол.фан.док. дис. – Самарқанд, 2021. – Б.4.

³ Қайумов А. Қўқон адабий мухити. Асарлар, 10 жилдлик, 7-жилд. – Тошкент: Фан, 2011

misol bo‘la oladi.⁴ Natijada o‘zbek adabiyoti xazinasini Amiriy, Nodira, Dilshod, Huvaydo, Fazliy, Ado, G‘oziy, Haziniy, G‘aribiy, Muhsiniy, Muhayyir, Niso, Xoniy, Uvaysiy, Muhyi, Qoriy, Yoriy, Furqat, Muqimiy, Mahmud Hakim Yayfoniy, Charxiy, Sobir Abdulla kabi qo‘qonlik shoirlarning durdona asarlari bilan boyidi.

Dissertatsiyamiz markaziga olib chiqilayotgan Do‘stmuhammad Firoqiy hayoti va ijodiy faoliyati hozirgacha yaxlit tadqiqot manbasi sifatida o‘rganilmagan. Firoqiy zullisonayn shoir bo‘lib, o‘zbek va tojik tillarida mahorat bilan she‘rlar yozgan. Uning har ikki tilda tuzilgan devonlari avlodlari qo‘lida, Qo‘qon adabiy muzeyi fondida saqlanadi. Shuningdek, shoir qalamiga mansub she‘rlardan namunalar matbuotda, antologiya va tazkiralarda ham e‘lon qilingan⁵. Shuning uchun ham ushbu ilmiy izlanishlarni bu boradagi dastlabki urinishlar sifatida qabul qilish mumkin. Do‘stmuhammad Firoqiy tarjimai holi, qo‘lyozma devonlarining janriy tarkibi, shoirning lirik qahramoni hamda badiiy mahorati masalalarini yaxlit ilmiy-monografik tadqiqot doirasida o‘rganish adabiyotshunosligimizdagi bo‘shliqni to‘ldirish nuqtayi nazaridan dolzarbdir.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Qo‘qon davlat pedagogika instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “O‘zbek mumtoz adabiyoti muammolari: Qo‘qon adabiy muhiti” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Do‘stmuhammad Firoqiy hayoti va ijodini maxsus tadqiq etish, tarjimai holi tiklash, adabiy merosi manbalarini, she‘rlari hajmini belgilash, g‘oyaviy-badiiy xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

⁴ Қаюмов Л. Ҳамза абадияти. – Тошкент: Фан, 1978; Иброҳимова Э. Увайсий. Монография. – Тошкент: Фан, 1963; Жабборов Н. Фурқат асарларининг қўлёзма манбалари. Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 1994; шу муаллиф. Фурқатнинг хориждаги ҳаёти ва ижодий мероси: манбалари, матний тадқиқи, поэтикаси. Филол. фан. д-ри... дисс. – Тошкент, 2004; Адизова И. Увайсий шеърлятида поэтик тафаккурнинг янгилашиши. Филол. фан. докт. (DSc) дисс... – Тошкент, 2020; Қобилова З. Бадий ижодда таъсир ва издошлик. Филол. фан. докт. дисс. (DSc) Тошкент, 2021; Турдиалиев А. Махмуд Ҳаким Яйфаний адабий ва илмий меросининг манбалари: Филол. фанлари номз... дис. автореф. – Тошкент, 1997; Зоҳидова Д. Ғарбий ва унинг девони: филол. фан. номз. ... дис. автореф. – Тошкент, 2006; Абдуллаева Д. Усмонхўжа Зорий ҳаёти ва ижоди: Филол. фан. номз. ... дис. автореф. – Тошкент, 2003; Деҳқонов А. Муҳаййирнинг ҳаёти ва ижоди. Филология фанлари номз. ... дис. автореф. – Тошкент, 2007; Жўрабоев О. Ҳазиний Хўқандий ҳаёти ва ижодий мероси: Филол. фан. ном. дис. автореф. – Тошкент, 2003; Муҳиддинова Н. Ғозий ва Саодий шеърлятида салафлар аъналарининг поэтик тақомили. Филол. фан. докт. ... дис. автореф. – Самарқанд, 2021; Муҳаммадиев А. Муҳйининг туркий ва форсий девони поэтикаси: Филол. фан. номз. ... дис. автореф. – Самарқанд, 2008; Сулаймонов И. Мулла Махмуд Қорий ва унинг поэтик мероси. Филол. фан. номз. ... дис. автореф. – Самарқанд, 2010; Эшоннова С. XX аср бошларидаги Қўқон шоирлари (Нисо ва Хоний): Филол. фан. номз. ... дис. автореф. – Тошкент, 2006; Эшонқулова С. Нодира шеърлятида тарихий образлар. Филол. фан. номз. ... дис. автореф. – Самарқанд, 2011; Тошболтаева Т. Фазлий Намангоний: Мажмуаи шоирон”да аънавийлик ва ўзига хослик. Фил.ф.б.ф.д.дис.авт., 2022; Жўраев М. Ёрмуҳаммад Ёрий шоир, таржимон. Тошкент: BOOKMANY PRINT, 2022.

⁵ Фирокий. Девон. Қўлёзма. (Шоирнинг қизи Мастура Назирова шахсий кутубхонасида сақланади). Фирокий архиви. G‘afur G‘ulom nomidagi Qo‘qon adabiyot muzeyi fondi КП 5424; КП 5420; КП 6768; Charxiy arxivi. G‘afur G‘ulom nomidagi Qo‘qon adabiyot muzeyi fondi, КП 5419; Firoqiy. Hakimzodaga. // Yangi Farg‘ona. 1961yil, 7 fevral, 17 (7146); Abadiyat daraxti / Tuzuvchi: N.Lukashov, H.Saidg‘aniyev, Toshkent, 1989; Qayumov P. Tazkirayi Qayyumiy. – Toshkent: O‘zRFA Qo‘lyozmalar instituti tahririy nashriyot bo‘limi, 1998; Toшболтаева Т. Фирокий шеърляти. Талабаларнинг илмий ижодий фаолиятини ташкил этиш: муаммо ва ечимлар. 2-жилд. Фарғона, 2010. 151-153; Zokirova D. Xiva va Qo‘qon adabiy muhitidagi izdoshlik Firoqiyning Ogahiyga taxmisi misolida; Zohidova D. Umrzoq Abduvali o‘g‘li G‘aribiy. – Toshkent, 2019.

Do'stmuhammad Firoqiyning hayoti va ijodiy faoliyatini o'rganish;
shoir qo'lyozma devonini tabdil qilish, uning holati va ko'lami xususida ma'lumotlar berish;

shoir she'riyatining mavzular mundarijasini aniqlash va janriy tarkibini yoritish;

shoirning lirik janrlarda ijod etishi, xususan, uning g'azalnavislik, muxammaschilik va boshqa janrlardagi she'riyati asosida uning ijodiy pozitsiyasini belgilash;

Firoqiy she'riyatining lirik qahramoni va obrazlar olamini tavsif va tasniflash, ularning poetik xususiyatlarini aniqlab chiqish;

shoir poetikasining eng muhim jihatlarini yoritish va shu orqali uning muayyan she'rda aytmoqchi bo'lgan fikr-o'yini qay darajada mahorat bilan yoritilganligi, badiiy-tasviriy vositalardan foydalanish va qofiya hamda vaznlardagi poetik mahoratini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida Firoqiyning avlodlari qo'lida saqlanayotgan qo'lyozma devonlari, shuningdek, Qo'qon adabiyot muzeyi fondidagi dastxat bayozi olingan.

Tadqiqotning predmetini Do'stmuhammad Firoqiy she'riyati poetikasi tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada qiyosiy-tipologik, kontekstual tahlil, germenovik, biografik va statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

o'zbek adabiyotshunosligida birinchi marta Do'stmuhammad Firoqiyning hayoti va ijodiy biografiyasi shoir haqidagi xotiralar, hasbi hol xarakteridagi she'rlar, qo'lyozma va toshbosma manbalar, maktublar kabi ma'lumotlarga tayangan holda dalillangan;

shoirning g'azal, fard singari she'riy janrlar, musammat shakllariga oid asarlari aniqlanib, jami 4684 misradan iborat 222 ta she'ri ilmiy muomalaga kiritilgan va ularning ishqiy, falsafiy, axloqiy, ijtimoiy kabi mavzularda yozilgani isbotlangan;

shoirning g'azal, muxammas, murabba, ruboiy, chiston, fard janrlarida ham barakali ijod qilgani, muvashshah-g'azal, nazira-g'azal, mushoira-g'azallarning go'zal namunalarini yaratgani, ilk marotaba mushoira-muxammas janrini o'zbek mumtoz adabiyotiga olib kirgani asoslangan;

Firoqiyning lirik qahramoni nosih, oshiq, modih ko'rinishlarida namoyon bo'lgani, she'rlarida musiqiylik va ta'sirchanlikni orttirish maqsadida ramal, hazaj, mutaqorib bahrlaridan keng foydalangani, tashbeh, mubolag'a, tazod, tashxis, tajohuli orif kabi badiiy san'atlar shoirning poetik niyatini o'quvchiga yetkazishda alohida ahamiyatga ega bo'lgani ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Firoqiyning dastxat devonlari - o'zbekcha hamda tojikcha she'rlar majmuasi uning nisbatan mukammal devoni ekanligi isbotlanib, devonlarining tarkibi devon tuzish tamoyillari asosida tavsiflangan;

Firoqiy taxallusli shoirlar qatorida shoir Do‘stmuhammad Firoqiyning ham o‘rin olganining mohiyati, she‘riyatida irfoniy, rindona, zamonaviy ohanglarning ustuvorligi, ma‘rifiy-irfoniy qarashlarining islomiy-tasavvufiy manbalar asosida poetik ifoda etilganligi tizimli qiyosiy tahlillar asosida aniqlangan;

Sho‘ro davrida Qo‘qon shoirlari orasida Firoqiydek qalamkashning ijod etgani, sohibdevon shoir bo‘lgani noyob adabiy hodisa ekanligi she‘riyati tadqiqi misolida isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot yuzasidan chiqarilgan xulosalar tadqiqotchi tomonidan e‘lon qilingan ilmiy ishlarda o‘z ifodasini topganligi hamda bu xulosalar ilmiy jamoatchilik tomonidan ijobiy baholanganligi, aniq qo‘yilgan muammo qiyosiy-tipologik, kontekstual tahlil, biografik va statistik tahlil usullari yordamida yechilganligi, nazariy xulosa va farazlarning amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shoir ijodi misolida davr adabiyotida lirik janrlar taraqqiyoti, ularda she‘rlar bitishdagi Do‘stmuhammad Firoqiyning an‘ananing davomchisi ekanligi, ayni chog‘da, uning o‘ziga xos ijodiy uslubi, badiiy mahorati, she‘riyatining mavzusi va obrazlar olami, XIX asrning oxiri va XX asr boshlari Qo‘qon muhitida o‘zbek-tojik zullisonaynlik an‘anasining davom etishini o‘rganish bilan aloqador tadqiqotlarda mazkur ish muayyan darajada ilmiy manba bo‘lib xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dissertatsiyaning xulosalaridan “Adabiyot nazariyasi”, “Mumtoz poetika”, “Tasavvuf va badiiy adabiyot”, “Ma‘naviyat asoslari” kabi o‘quv fanlari bo‘yicha oliy ta‘lim tizimiga mo‘ljallangan darslik, o‘quv qo‘llanmalar yozishda, ularga oid dars mashg‘ulotlarini tashkil qilishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Do‘stmuhammad Firoqiyning she‘riyati va uning poetikasi masalasini tadqiq etish jarayonida chiqarilgan xulosalar, erishilgan ilmiy natijalarning joriylanishi quyidagilarda ko‘rinadi:

o‘zbek adabiyotshunosligida birinchi marta Do‘stmuhammad Firoqiyning hayoti va ijodiy biografiyasi shoir haqidagi xotiralar, hasbi hol xarakteridagi she‘rlar, qo‘lyozma va toshbosma manbalar, maktublar kabi ma‘lumotlarga tayangan holda dalillangani bilan bog‘liq yangiliklardan AL-322103020 raqamli “Qo‘qon adabiy muhiti ijodkorlari hayoti va ijodi bo‘yicha veb-sayt va elektron platforma yaratish” mavzusidagi loyihada foydalanilgan (Qo‘qon davlat pedagogika institutining 2024-yil 27-maydagi 632/04 – son ma‘lumotnomasi). Natijada, platforma yangi va qiziqarli ma‘lumotlar bilan boyitilib, foydalanuvchilarga qulaylik yaratilgan;

shoirning g‘azal, fard singari she‘riy janrlar, musammat shakllariga oid asarlari aniqlanib, jami 4684 misradan iborat 222 ta she‘ri ilmiy muomalaga kiritilgan va ularning ishqiy, falsafiy, axloqiy, ijtimoiy kabi mavzularda yozilgani isbotlanganiga doir xulosalardan O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi qoshidagi nasr va adabiy tanqid bo‘limi yig‘inlarida yosh ijodkorlarga o‘tilgan mahorat darslarida, shuningdek, ijodiy seminarlarda o‘qilgan ma‘ruzalarda foydalanilgan.

(O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining 2024- yil 11-martdagi 01-03/288 raqamli ma‘lumotnomasi). Natijada yosh qalamkashlarning adabiyot tarixiga oid bilimlari kengaygan, seminarlarning ilmiy-ommabopligi ta‘minlangan;

shoirning g‘azal, muxammas, murabba, ruboiy, chiston, fard janrlarida ham barakali ijod qilgani, muvashshah-g‘azal, nazira-g‘azal, mushoira-g‘azallarning go‘zal namunalarini yaratgani, ilk marotaba mushoira-muxammas janrini o‘zbek mumtoz adabiyotiga olib kirgani asoslangani haqidagi xulosalardan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining “O‘zbekiston” teleradiokanali “Bedorlik”, “Adabiy jarayon”, “G‘azal bo‘stoni” nomli eshittirishlari (2022-2024-yillar) ssenariysida foydalanilgan (“O‘zbekiston” Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston teleradiokanali” davlat muassasasining 2024-yil 4-noyabrdagi 04-36-1169-son ma‘lumotnomasi). “Natijada radiotinglovchilar Qo‘qon adabiy muhitining yana bir vakili ijodi bilan tanishgan, eshittirishlarning ilmiy qimmati ortgan.

Firoqiyning lirik qahramoni nosih, oshiq, modih ko‘rinishlarida namoyon bo‘lgani, she‘rlarida musiqiylik va ta‘sirchanlikni orttirish maqsadida ramal, hazaj, mutaqorib bahrlaridan keng foydalangani, tashbeh, mubolag‘a, tazod, tashxis, tajohuli orif kabi badiiy san‘atlar shoirning poetik niyatini o‘quvchiga yetkazishda alohida ahamiyatga ega bo‘lgani ochib berilgani bilan bog‘liq xulosalardan Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazining 2022-2023-yillarda o‘tkazilgan targ‘ibot faoliyatida foydalanilgan (Respublika ma‘naviyat va ma‘rifat markazi huzuridagi ijtimoiy ma‘naviy tadqiqotlar institutining 2024-yil 4-apreldagi 250-son ma‘lumotnomasi). Natijada, targ‘ibot anjumanlarining ilmiy-ma‘rifiy jihatdan o‘ziga xosligi ortgan, badiiy adabiyotning tarbiya vositasi sifatidagi ahamiyati ochib berilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya ishi natijalari 6 ta, jumladan, 4 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma‘ruza ko‘rinishida bayon etilgan va aprobatsiyadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 10 ta ilmiy ish, jumladan, Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta, xorijiy jurnalda 1 ta maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya 145 sahifadan iborat bo‘lib, kirish, uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr etilgan ishlar hamda dissertatsiyaning tuzilishiga doir ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Do‘stmuhammad Firoqiy va uning adabiy merosi manbalari”** deb nomlangan bo‘lib, birinchi fasl **“Do‘stmuhammad Firoqiyning hayot yo‘li va faoliyati”** tadqiqiga bag‘ishlangan. O‘zbek adabiyoti tarixida, jumladan, Qo‘qon adabiy muhitida yetishib chiqqan, biroq hali ilm ahliga, xalqimizga yaxshi tanish bo‘lmagan ijodkorlar talaygina. Shulardan biri, Qo‘qon adabiy muhitining XIX asr oxiri XX asrda yashab, ijod etgan iste‘dodli vakillaridan biri Do‘stmuhammad Firoqiydir. Firoqiyning hayot yo‘lini tiklashda va adabiy faoliyatini o‘rganishda shoirning zamondoshlari qoldirgan xotiralarga, hammaslak do‘stlariga yozgan maktublariga, do‘stona aloqalarini ko‘rsatuvchi manbalarga, hasbi hol xarakteridagi she‘rlariga ham tayandik.

Firoqiy haqidagi ilk ma‘lumotlar Qo‘qon adabiy muhitining bilimdoni Po‘latjon Qayyumiy tazkirasining ikkinchi qismida keltirilgan bo‘lib, №6-fiqra shoirga bag‘ishlangan⁶. Mazkur fiqrada Firoqiyning ismi Do‘stmuhammad Hojimuhammad o‘g‘li bo‘lib, asli Chust qasabasidan ekanligi, 1891- yilda kosib oilasida tug‘ilganligi, boshlang‘ich maktabni bitirgach, Qo‘qondagi Zanjirli madrasasida tahsilni davom ettirganligi, she‘rda va tasavvufda ustoz mavlono Zarra ekanligi, ota kasbi qassobchilik bilan kun kechirganligi, Qo‘qonning Sarmazor dahasidagi Toshkandlik mahallasida Yangi hayot ko‘chada istiqomat qilganligi, shaharning atoqli shoirlaridan biri hisoblanib, “axloqi hamida, sohibi mehr-u muhabbatli bo‘lub, xushxat, xushxon, latifatgo‘y, xushsuhbat kishi”⁷ ekanligi qayd etilgan. O‘rni kelganda ta‘kidlash kerakki, Firoqiyning yetuk shoir bo‘lishida, diniy-tasavvufiy ruhdagi she‘rlarining yozilishida ustozlarining o‘rni katta bo‘lgan. Ustozlaridan biri mavlono Zarraning asl ismi mulla Mir Abdulla bo‘lib, Qo‘qondagi Madrasai Oliyda tahsil olgan, zamonasining olim va fozil bir kishisi bo‘lgan. Yana biri esa Firoqiyning hayotida muhim rol o‘ynagan shoir Partavdir. Partavning ismi Mulla Nu‘mon bo‘lib, asli samarqandlik, 1921 - yilda Farg‘ona vodiysiga kelgan. Olim, fozil, shoir, badihago‘y ham bo‘lgan. Qo‘qonlik shoirlar Mulla Haydar Shaydo, Firoqiy, Charxiylar bilan do‘stona aloqalari bo‘lgan. P.Qayyumiy va Firoqiyning ma‘lumotiga ko‘ra, Partav “yarim falaj, sudralib yuruvchi, ko‘zlari g‘ilay, bir qo‘li ishlaymaydigan, notovon odam ekan. Shunday bo‘lgani holatda gashti guzar, sayru sayohat qilar, qalandarona vaz‘iyatda bo‘lmishdur”⁸. Ma‘lum bo‘ladiki, Partav jismonan nogiron bo‘lsa-da, zamonasining shoirlari orasida hurmatli zotlardan hisoblanib, tasavvufdan yaxshi xabardor bo‘lgan. Mustahkam e‘tiqodi sababidan bo‘lsa kerak, hibsga olingan. Sho‘ro hukumati g‘oyalar egalaridan qo‘rqan. Shu bois ham nogiron bo‘lishiga qaramay, shoirni hibsga etgan.

Po‘latjon Qayumovning “Xo‘qand tarixi va uning adabiyoti” nomli kitobida Do‘stmuhammad Firoqiy haqida ma‘lumotni deyarli uchratmadik. Biroq Yormuhammad Yoriyga berilgan sahifada akademik Aziz Qayumov (Firxatiy

⁶ Qayumov P. Tazkirayi Qayyumiy. – Toshkent: O‘zRFA Qo‘lyozmalar instituti tahririy nashriyot bo‘limi, 1998.

⁷ O‘sha joyda.

⁸ O‘sha asar; Firoqiy. Devon. Qo‘lyozma. (Shoirning qizi Mastura Nazirova shaxsiy kutubxonasida saqlanadi). 27- bet. Bundan keyin mazkur manbadan she‘r olinganda sahifasi qavs ichida ko‘rsatiladi. Barcha she‘rlar tabdil biz tomonimizdan amalga oshirilgan (G.J)

Firoqiyning boshqa taxallusi deb beriladi), uni o‘z davrida e‘tibor topgan shoirlardan biri bo‘lganini ko‘rsatadi:

Firxatiy, Charxiy-u Javdat, Saidiy bo‘lsa Sharof,
Sobir Abdulla-yu Zuhra beniqob istar ko‘ngil.⁹

Do‘stmuhammad Firoqiyning yana bir taxallusi Firxatiy ekanligi haqidagi qaydlar “Abadiyat daraxti” to‘plamida ham qayd etilgan¹⁰. Ma‘lum bo‘ladiki, shoir Firoqiy va Firxatiy taxalluslarida ijod qilgan. Sharq adabiyoti tarixida “Firoqiy” va bu so‘zning muqobillari sanalgan “Furqat”, “Hijron” taxalluslari bilan ijod qilgan shoirlar talaygina. Turkman adabiyotining yirik vakili, o‘z vaqtida “turkmaning vijdoni” rutbasi bilan ulug‘langan Maxtumquli Firoqiyning o‘ziyoq bu taxallusli shoirlarning ijod yo‘li, ma‘naviy pozitsiyalari bir-birlariga yaqin, mushtarak ekanligidan dalolat qiladi. “Firoq” so‘zi tasavvufiy istilohlardan biri ekanligi, solikning firoqda yashab, dunyoviy hayoti firoqda intihoga yetishi xususida ham xulosaga kelish maqsadga muvofiqdir.

Shoirning tarjimayi holini ko‘zdan kechirish va avlodlari bilan olib borilgan suhbatlar natijasida to‘plangan ma‘lumotlar asosida adibning biografiyasini tiklashga muvaffaq bo‘ldik. Unga ko‘ra Do‘stmuhammad Firoqiy Farg‘ona viloyati Chust tumani Siroba mahallasida 1891-yil 20-avgustda kambag‘al qassob oilasida tug‘ilgan. Otasi uni 6 yoshida mahallasidagi boshlang‘ich maktabga o‘qishga beradi. Zehni o‘tkir bo‘lganligini uchun ikki yilda savodi chiqadi. Har qanday turkiy va forsiy asarlarni bemalol o‘qiy boshlaydi. So‘ng husnixat bilan shug‘ullanadi. 10 yoshida Ahmad Yassaviyning “Hikmat” asarini ko‘chirib yozadi. Firoqiy So‘fizoda bilan bir mahallada yashagan va undan she‘riyat ilmini o‘rgangan. 11 yoshida Qo‘qondagi Madrasai Zindbardorda ilmlarini mustahkamlaydi. U 2 yil mobaynida madrasa tahsilini olgandan so‘ng, oilaviy sharoit sabab o‘qishni tashlab, otasiga yordam berish uchun uyiga qaytadi. 18 yoshidan boshlab ota kasbi bilan shug‘ullanadi. Bu orada ko‘plab shoirlaning asarlarini mutoala qiladi. 1932-yilda oilasi bilan Qo‘qonga ko‘chib keladi. Biroz vaqtdan keyin ota-onasi vafot etadi. 25 yil otasining o‘rniga Qo‘qon shahar bozor qo‘mitasida qassob bo‘lib ishlaydi. Shoir ijodining gullab-yashnagan davri Qo‘qonda yashagan yillariga to‘g‘ri keladi. Qo‘qon shoirlari ichida Do‘stmuhammad Firoqiyning alohida o‘rni borligi uning o‘z davrida e‘tiborli shoirlardan biri bo‘lganligini, davrining iste‘dodli shoirlari Hamza, Zavqiy, Chustiy, Charxiy, Javdat, G‘aribiy, Mahjur singari qalamkashlari bilan yaqin aloqada, ijodiy muloqotda ekanligi ham tasdiqlaydi¹¹.

Shoir safarga chiqishni niyat qilib, Qozog‘istonning Olim ota (Olmota shahri aslida Olim ota bo‘lgan bo‘lsa kerak) shahriga boradi va u yerda 6 yil yashaydi. O‘sha yerda uylanadi. Alloh ularga 10 nafar farzand beradi, lekin farzandlarning faqat to‘rttasi yashab qoladi. Shoir 1965-yilda Qo‘qon shahrida vafot etadi.

Bobning ikkinchi fasli **“Shoirning adabiy merosi manbalari”** ni tadqiq etishga qaratilgan. Firoqiy zullisonayn shoir bo‘lib, o‘zbek va tojik tillarida

⁹ Қаюмов П. Хўқанд тарихи ва унинг адабиёти. – Тошкент: Тамаддун, 2011. – Б.214.

¹⁰ Абдиат дарахти .Тузувчи: Н. Лукашов, Х. Саидганиев, – Тошкент, 1989.

¹¹ Мухаммаджон Махжурий. Висолинг орзуси. –Тошкент: Академнашр, 2019. – Б.219; Zohidova D. Umrzoq Abduvali o‘g‘li G‘aribiy. –Toshkent, 2019. – Б. 20

mahorat bilan she'rlar yozgan. Shoir adabiy merosining bizga ma'lum manbalari quyidagilardan iborat: O'zbekcha va tojikcha she'rlardan tarkib topgan 2 qo'lyozma devon; Qo'qon adabiyot muzeyi fondida saqlanayotgan qo'lyozma bayoz va parokanda varaqlardagi asarlar; Po'latjon Qayumov asarlari tarkibidagi she'rlar; matbuotda va joriy nashrlarda e'lon qilingan she'rlar.

Firoqiyning avlodlari qo'lida saqlanayotgan dastxat devoni an'anaviy devon tuzish amallaridan nisbatan farq qiladi. Devondagi she'riy janrlar aralash kelgan. Shoirning o'zbekcha she'rlarini o'z ichiga olgan qo'lyozma devoni yaxshi saqlangan. Ichki va tashqi muqovaga ega. Tashqi muqova teri bilan qoplangan. Och jigarrang ko'rinishda. Dastxat. Tamg'asi yo'q. Qo'lyozma o'lchovi 15x20. Matn o'lchovi 11x15. Mayda, xushxat, chiroyli nasta'liq xati bilan ko'chirilgan. She'rlar muallif tomonidan 1961-yildan so'ng ko'chirib chiqilgan. Chunki, daftar boshiga 1961-yil 1-yanvar deb yozilgan. Devonga kiritilgan she'rlar oxiriga yozilgan sanalari qayd etilgan. Masalan, 1925, 1936, 1954 kabi. Unga muallifning butun umri davomida yozgan she'rlari kiritilgan. Qo'lyozmada muqaddima mavjud bo'lib, unda shunday deyilgan:

Bilmoqg'a bo'lsa kimning ko'nglida ishtiyoq,
Ko'rsun o'qub sarosar devonidur Firoqiy.
Qoldurmayin, tinmayin daftarni to'ldirurmen,
Maqsadni qilsa hosil, gar bo'lsa umr boqiy.

Buni muallifning kirish so'zi deb hisoblash mumkin. Shundan keyingi betga devonning nomi – "Devoni Firoqiy. G'azal va muxammaslari" sarlavhasi qo'yilgan¹². Shunday nomlangani bilan devonda 10 ga yaqin lirik janrdagi she'rlar bor. G'azal va muxammaslar devonning asosiy tarkibini tashkil etganligi uchun ham shunday nomlangan bo'lsa kerak. Shoir daftarni birinchi she'ri boshlangan joydan raqamlagan. "Bismillahir rohmanir rohiym" bilan an'anaviy hamd g'azal boshlangan. Mazkur devondagi she'rlarning janrlari va miqdori tubandagicha:

1. G'azal – 92 ta (7 tasi fors tojik tilida, jami g'azallar 894 bayt, 1788 misra).
2. Muxammas – 61 ta (13 tasi fors tojik tilida, jami 390 band, 1960 misra).
3. Masnaviy – 3 ta (64 bayt, 128 misra).
4. Ta'rix – 2 ta (29 bayt, 59 misra fors tojik tilida).
5. Fard – 1 ta (1 bayt).
6. Chiston – 1 ta.

Devonda yuqoridagi janrlardan tashqari 1 ta 20 baytlik marsiya, hikmatli so'z va Abdusamadjon maxdum, Mahjur kabi o'zga shoirlarning she'rlaridan 3 ta g'azal (31 bayt), 2 ta muxammas (12 band) ham berilgan.

Bizning kuzatuvlarimizga ko'ra shoirning dastlabki devonidagi asarlari miqdori 160 ta bo'lib, umumiy hajmi 3926 misrani tashkil qiladi.

Shoirning ikkinchi devonda ham anchagina she'r berilgan. Mazkur qo'lyozma devon 71 sahifa bo'lib, oddiy o'quvchilar daftariga nasta'liq xatida ko'chirilgan. Uchinchi sahifasida "Firoqiyning forscha devoni va turkcha har qaysi shoirlar

¹²Jo'rayeva G. Firoqiy devoni: tuzilishi va tarkibi. "Qo'qon adabiy muhiti va uchinchi renessans" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. 2022-yil 28-may. – B 496-502.

gʻazalidan namuna devoni Firoqiy qassob” deb yozilgan. Poygir qoʻyilmagan. Matnlar sahifaga bir ikki, baʼzi joylariga uch ustundan joylashtirilgan. Qoʻlyozmaning qachon koʻchirilgani qayd etilmagan, bizningcha XX asr 60-70-yillar oraligʻida koʻchirilgan, deb oʻylaymiz (Chunki qoʻlyozma devonning oxirgi sahifasidagi sheʼrlarga 5/X.63. sanasi qoʻyilgan). Dastxat tamgʻasi yoʻq. Qoʻlyozma oʻlchovi 15x20. Matn oʻlchovi 11x15. Saqlanishi yaxshi. Sheʼrlarning matnlari ancha savodli koʻchirilgan. Matnlar qora, koʻk baʼzan qizil va oddiy siyoh bilan yozilgan. Qoʻlyozmada Bedil, Abu Ali ibn Sino, Nizomiy Xoʻqandiy, Shukriy, Mahjuriy, Charxiy kabi shoirlarning sheʼrlaridan namunalar berilgan. Devon tarkibidagi anchagina sheʼrlar oʻzbekcha. Bizning kuzatuvlarimizga koʻra shoirning forsiy devonidagi asarlari miqdori 62 ta boʻlib, umumiy hajmi 758 misra, yani 379 baytni tashkil qiladi.

Qoʻqon adabiyot muzeyi fondidagi KM-5419, KP-5420 raqamli invertarlarda Firoqiyning 4 muxammas va 1 gʻazali mavjud. Shuningdek, KP-6768 raqam ostida Firoqiyning oʻz sheʼrlaridan iborat bayozi ham saqlanadi. Bayoz yirtib olingan sahifalardan iborat. Bayoz “Hamd bori Taolo az taʼbi Zarra Doʻstmuhammad bin Muhammad qassob Chustiy” deb boshlangan. Unda quyidagi sheʼrlar oʻrin olgan: 19 baytli hamd gʻazal (devonda 16 bayt); Hamd bayoni taolo gʻazali Amiriy muxammasi Firoqiy. 4 band; Partaviyni axtarib borganda yozilgan sheʼr. 11 baytli gʻazal. (1934-yil, dekabr); Ustozi mavlono Abdusamad Chustiy tabiatlaridan shoirning muhabbatomuz sheʼrlaridan namuna 36 bayt; Marhum Olim domlaga 26 baytli marsiya; Firoqiyning Muqimiy gʻazaliga 6 band muxammasi (1959-yil, 12-may); Firoqiyning Xotif gʻazaliga 5 bandli taxmisi kiritilgan. (1959-yil, 25-may).

KP-5424 raqamli Charxiy arxivida Firoqiyning Charxiy gʻazaliga 8 bandlik muxammasi, Chustiy va Firoqiyning “ustindadur” mushoirasidan 4 bayt; Charxiy va Firoqiy mushoirasidan 9 bayt (1937-yil, 2-fevral sanasi qoʻyilgan); Charxiyning “olgʻil” radifli gʻazaliga Firoqiyning 3 bandli taxmisi; 1 band qoralama muxammas; doʻstdan doʻstga doʻstona mutoyiba maktub (7 bandli muxammas); Firoqiyning 9 baytli gʻazali; Muqimiy gʻazaliga Firoqiyning 6 bandli muxammasi (1959-yil, 12-may) kiritilgan.

Poʻlatjon Qayyumiyning “Tazkirayi Qayyumiy” tazkirasida Shoir Firoqiyning 2 gʻazal va 3 muxammasi bor¹³.

“Abadiyat daraxti” toʻplamiga Hamzaning “Har dilning oʻzin sevdigi jononasi yaxshi, Jonona oʻzin sevdigi devonasi yaxshi” matlaʼli gʻazaliga Firoqiyning 5 bandli taxmisi va “qalamim” radifli 10 baytli gʻazali kiritilgan¹⁴.

“Yangi Fargʻona” gazetasi sahifalarida ham Firoqiy sheʼrlari berilgan boʻlib, sheʼr “Hakimzodaga” sarlavhasi bilan eʼlon qilingan.¹⁵

Hozircha shoirning jami 4684 misradan iborat 222 ta sheʼri aniqlandi.

¹³ Qayumov P. Tazkirayi Qayyumiy. – Toshkent: OʻzRFA Qoʻlyozmalar instituti tahririy nashriyot boʻlimi, 1998.

¹⁴ Абдиат даракти. (Ҳамза замондошлари ва кейинги авлод адибларининг назмий ва насрий асарлари тўплами). -Тошкент: Фафур Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1989. – Б. 17.

¹⁵ Firoqiy. Hakimzodaga. // Yangi Fargʻona. 196-yil, 7- fevral, 17 (7146).

Ishning ikkinchi bobi “Firoqiy she’riyatining janr xususiyatlari va mavzu doiralari” deb nomlangan bo‘lib, birinchi faslda “Janr va uslubiy o‘ziga xoslik” masalalari haqida so‘z boradi. Lirik she’riyatda janrlarning o‘z xossalari, shakllanish mezonlari, talqiniy maromlari mavjud. Har bir janr shakllanar ekan, o‘zining spesifik qonuniyatlaridan kelib chiqadi. “Janr” tushunchasining qamrovi keng. “Lirik turga mansub asarlarni janrlarga ajratishda ham turlicha prinsiplar mavjudligini ta’kidlash kerak. Adabiyotshunoslikda ulardan ikkitasi – shakl xususiyatlaridan kelib chiqib tasniflash hamda mazmun xususiyatlaridan kelib chiqqan holda tasniflash kengroq tarqalgan”¹⁶. Shoir Firoqiy devonidagi janrlarni shakl xususiyatlariga ko‘ra va anjumanga mo‘ljallangan janrlar sifatida tasniflash mumkin. Shoir she’riyatida shakl xususiyatlariga ko‘ra g‘azal, murabba, muxammas, ruboiy, fard janridagi she’rlar, anjumanga mo‘ljallangan janrlardan nazira, badiha, chistonlar mavjud.

Ma’lumki shakl xususiyatlari deyilganda she’r bandning tarkiblanishi, qofiyalanish tartibi, vazn nazarda tutiladi. Firoqiy lirikasining asosiy qismini g‘azal janridagi she’rlar tashkil etadi. Shoir Firoqiy g‘azallarini kompozitsiya jihatidan yakpora, parokanda, voqeaband g‘azallarga ajratish mumkin. G‘azallarning aksariyati yakpora xarakterida. Parokanda hamda voqeaband g‘azallar kam uchrasa, musalsal g‘azallar deyarli uchramaydi. Devonlarda muvashshah g‘azallar ham mavjud. Aslida, muammo zamiridan o‘sib chiqqan va arabcha hisoblangan “muvashshah” istilohining atash ma’nosi “ziynatlangan”, “bezatilgan” bo‘lib, ma’naviy san’atlar toifasiga kiradi. Ayni chog‘da esa, lirik janrning bir turi sifatida ham e’tirof etilgan. She’rda asosan bir kishining ismi muzayyan qilinadi va uni topishga ishora beriladi. Firoqiyning “Mashrabxon” “Mo‘minjon” “Habibxon” kabi bir qator ismlarga muvashshah g‘azallari bor. Maqsud Shayxzodaning qayd etishicha, muvashshahlar “XIX asrning ikkinchi yarmida avj olib ketib, adabiyot ahli o‘rtasida rasm bo‘lgan. Hatto shoirlilik va nazmchilik hunari muvashshahchilikdagi mahorat bilan o‘lchanadigan bo‘lib qolgan edi”¹⁷. Muvashshahlar biror tarixiy shaxs nomiga bitilar ekan, nazarda tutilgan shaxs she’r muallifiga qaysidir munosabatda yaqin ekanligi, hayotiga va ijodiga qandaydir ta’sir etganligi ayon bo‘ladi. Bu esa shoirlarning tarjimai holini tuzishda, uning hayot yo‘lini o‘rganishda ma’lum darajada ahamiyat kasb etadi. Qolaversa, shoir mahoratini belgilashda ham muvashshahlarning alohida o‘rni bor.

Shoir Firoqiyning nazira tipida yozilgan g‘azallari ham talaygina. Shoir devonidagi she’rlarning bir qismini nazira yo‘lida bitilgan she’rlari tashkil qiladi. Adabiyotshunos Z.Qobilovning yozishicha, “Sharqda tatabbu’chilik, nazirago‘ylik, bir so‘z bilan aytganda, muayyan bir shoirning boshqasining asariga muhabbatdan yoki ustoz-shogird an’anasidan bir-biridan ulgu olib she’r yoki epik asar bitish bir ijodiy jarayonga aylanib qolgan. Natija o‘laroq, bir qalamkashning ijodiy yaratig‘i ikkinchi bir shoirning mahoratining shakllanib, uning yetuk shoir bo‘lib kamol topishiga xizmat qilgan.”¹⁸ Firoqiy ham bundan mustasno emas.

¹⁶ Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent, Navoiy universiteti, – B. 390.

¹⁷ Муқимий ва Фурқат ҳақидаги мақолалар. – Тошкент: Ўздавнашр, 1958. – Б.70.

¹⁸ Қобилова З. Бадий ижодда таъсир ва издошлик. – Тошкент: Турон-Иқбол, 2021. – Б. 44-50.

Firoqiy Alisher Navoiyning “kelmadi”, Amiriyning “qil”, Nodiraning “etib ket” kabi g‘azallariga naziralar bitgan va ular ustozlar g‘azallari bilan bo‘ylasha oladigan badiiyat namunalari sanalishga arziydi. Birgina misol. Amiriy g‘azali asosidagi nazirada ishq nimaligidan bexabar kishilarga gulday jamolingni ko‘rsatma, uni hijob ichida yashirib yurgin mazmunidagi bayt juda go‘zal chiqqan:

Bul havasga ko‘rsatma gul yuzingni har yerda,
Ochmag‘il niqobingni parda ichra pinhon qil.

Firoqiy she‘riyatining o‘ziga xosligi sifatida shuni alohida qayd etish lozimki, uning ijodida bir g‘azalning ikki ijodkor tomonidan yozilgan turlari, ya‘ni mushoira g‘azallar ko‘p uchraydi. Jumladan Chustiy – Firoqiy mushoirasi asosida devonda 4 ta g‘azal, Charxiy va Firoqiy hamkorligida 6 ta g‘azal mavjud.

Firoqiy devonida “Bozor qo‘mitasida dujurlik kechasidagi voqeaband”, “Ho‘qand rayon Qizilbog‘ kolxo‘zida, mazkur kolxo‘zda kassir bo‘lib ishlab turgan vaqtda bo‘lgan voqeasi” she‘rlarida shoirning ish-faoliyatida yuz bergan bir qator voqea-hodisalar qalamga olingan bo‘lib, unda shoir xarakter qirralarini yoritishga xizmat qiluvchi bir qator unsurlarga duch kelish mumkin. Qolaversa, mazkurlar shoirning hasbi holi borasida xabar beruvchi asarlar sifatida e‘tiborni tortadi. Voqeaband she‘rlarning aksariyati yengil yumor bilan berilganidan, ularni o‘quvchi xush qabul qiladi.

Muxammaschilikning ikki turi – taxmis va xos muxammas yaratish bobida Firoqiyning ham alohida o‘rni bor. Agar Firoqiy muxammaslarining miqdori 69 ta ekanligi, bu shoir she‘rlarining umumiy miqdorining salkam 30 % ini tashkil etishini hisobga olsak, shoir nash‘u namo topgan zamonda muxammaschilikda uning alohida o‘rni bo‘lganligini e‘tirof etish lozim bo‘ladi. Shoir ijodida Navoiy, Amiriy, Muqimiy, Furqat kabi mashhur qalam ahli g‘azallariga taxmislar bilan birga Mavzun, Shaydo, Xotif, Xuzuriy, Betob kabi Qo‘qon adabiy muhiti shoirlari g‘azallariga bog‘langan taxmislar ham bor. Shoirning shiru shakar muxammasiga Shahrisabzlik shoir Yusuf g‘azali asos bo‘lgan. Alohida ta‘kiglash kerakki, Firoqiy devonida ilk bor mushoira-muhammas namunasi uchraydi. Mazkur muhammas Charxiy va Firoqiy qalamiga mansub. Muhammasning Firoqiy yakunlagan so‘nggi bandini keltiramiz:

Vafo bobida qilgan iltimosim la‘li maygunlar,
Mabodo etmasunlar rad etib nayrang-u afsunlar,
Diling xuni, Firoqiy, basdur emdi etmasun xunlar,
Junun dashtida, Charxiy, oh urar Majnun kabi tunlar,
Alam sahrosida yozgan shiorimdin xabar olg‘il.

Firoqiyning tojik tilidagi devonida 2 ta fard ham bor. Ular biri dilozorlik qilmaslik haqida bo‘lsa, ikkinchida kishilardan aziyat chekkan, umrini behudaga sarflagan insonning yozg‘irishi aks etgan:

Ba har kas ahd sitam oqibat didam pushaymoni,
Ki, umri xo‘yash sarf gulruxon kardam zi nodoni.

Tarjimasi:

Kim ilan ahdi paymon bog‘ladim, ko‘rdim pushaymonlig‘,
Esiz umrimni gulruxlarga sarf etdim, bu – nodonlig‘.

Shoir gʻazal-mushoira va muxammas-mushoira namunalarini yaratib, oʻzbek sheʼriyatini bir qadar boyitdi. Muxammas-mushoira hozircha faqat Firoqiy devonida uchraydi.

Ikkinchi bobning navbatdagi fasli “Shoir sheʼriyatining mavzu koʻlami” deb nomlanadi. Firoqiy diniy – tasavvufiy, axloqiy -taʼlimiy, ishqiy va ijtimoiy-siyosiy mavzularda badiiy barkamol sheʼrlar yozdi. Mazkur mavzulardagi sheʼrlar asrlar tajribasi va anʼanasiga ega boʻlgan Sharq mumtoz sheʼriyatidan, xalq ogʻzaki poetik ijodi namunalaridan oziqlangan. Devondagi diniy-tasavvufiy mavzudagi sheʼrlarni hamd va naʼt mazmunidagi, orifona ruhdagi sheʼrlarga ajratish mumkin. Devonda hamd mazmunidagi sheʼrlarning miqdori koʻp emas.

Bismillohirr Rohmanir Rohiym hamding aytay insho,

Karamlik podshoyimsan zabonim aylagil goʻyo

matlaʼsi bilan boshlanuvchi gʻazalda Yaratgan vasf etiladi. Sheʼrning oxirlariga kelib, Muhammad solallohi alayhi vasallam, uning sifatlaridan bir shingil soʻz aytilib, shu jarayonda xulofoyi roshidin haqida ham soʻz aytib oʻtilgan:

Habibim deb ani yod aylading, ey, Xoliq(i) bechugun,

Nubuvvat tojini boshigʻa qoʻyding, ey, qodiri yakto.

Anga yor ayladingkim chahoryor bosafolarni,

Abu bakr, Umar, Usmon, Ali haydar(i) dono.

Mazkur gʻazal hamd va naʼt gʻazalning uygʻunligi shaklida yozilgan.

Shoirning naʼt xarakteridagi sheʼri Amiriy gʻazaliga muxammas tarzida yaratilgan¹⁹.

Firoqiyning “Gapurmasman” radifli gʻazalida komillik yoʻliga kirgan orif shaxs hayotiy qarashlari aks etgan. Shoir “Muhabbat koʻchasida oʻzga savdodin gapurmasman, Na qilgʻum bevafor sarv raʼnodin gapurmasman” (18) der ekan, xuddi ana shu holni nazarda tutadi va “oʻzga savdo” birikmasi tasavvuf maʼrifatidan boshqa dunyoviy muammolar ekanligini sezish qiyin emas. Bunga ikkinchi misradagi shoirning dunyoni baholash uchun istifoda qilgan “bevafor sarv raʼno” birikmasi ham koʻchim shaklida uxroviy mazmunga ishorasi bilan zikr etilgan yoʻnalishni koʻrsatib turadi.

Shoir devonidagi “Andesha qil”, “Qani?”, “Hakimzoda gʻazaliga muxammasi Firoqiy” gʻazallari axloqiy-taʼlimiy mavzusida bitilgan.

Shoirning “Kamdan-kam” radifli gʻazali bor. Bu gʻazalni hofizlardan Maʼrufxoʻja Bahodirov, Komiljon Otaniyozov, Azizullo Zaynobiddinov, Maʼmirjon Toʻxtasinovlar qoʻshiq qilib ijro qilishgan. Gʻazal bu yorugʻ dunyoning turfa qiliqlari, kishilar feʼl-atvorida nekbin xislatlilardan koʻra, zamima axloqlilar koʻpligi haqida. Sheʼrning lirik qahramoni ana shu turfa nayranglardan shikoyat qiladi. Hamida xulqli kishilar kamligidan ozorlanadi:

Qadrdonlikni doʻst tutgan jahonda yor kamdan-kam,

Samimiy suhbat istar oshino gʻamxoʻr kamdan-kam.

Bu dunyoyi dunda qadrdonlikni shior qilib, Allohni oʻrtaga qoʻyib doʻst tutinganlar kam. Shundanmi, samimiy suhbat qurishni istasang, bunday oshinoyi

¹⁹ Joʻrayeva G. Firoqiyning naʼt muxammasi. / “Oʻzbek tili va adabiyoti jurnali” / 2023-yil 3-son. – B. 88-91.

g'amxo'r kamdan-kam topiladi. Shuning uchun "Muhabbat birla topgan do'stdan zinhor tonmasman, Tanib topgan kishilar yo'q emaslar, bor kamdan-kam".

Firoqiy she'riyati mavzusiga ko'ra asosan ishqiy yo'nalishda. Yo. Is'hoqov Navoiy ijodidagi ishqni talqin qilar ekan, shunday xulosaga keladi: "Navoiyning ishq masalasidagi konsepsiyasining asosiy mohiyati shundan iboratki... majoziy ishq (insonga, borliqqa bo'lgan real sevgi) haqiqiy ishq (vujudi mutlaqqa – Haqqa bo'lgan muhabbat)dan alohida olinib, unga qarama-qarshi qo'yilmaydi. Balki majoziy ishq ishq haqiqiyning bir ko'rinishi yoki haqiqiy ishq yo'lidagi o'ziga xos bosqich sifatida baholanadi. Ruhan pok, ma'naviy komil inson uchun majozning o'zi ayni haqiqatdir"²⁰. Firoqiy ijodida ham majoz va haqiqat bir-birini inkor etmaydi. Firoqiy devonidagi "Tarahhum birla qilg'il yo'lda qolganlarga nazzora...", "Kel", "Qil", "Asiringman nigoro...", "Mayling", "Manga bir yo'l muhabbat birla boqg'il emdi janonim" singari g'azallarida ishq tarannum etiladi. Dissertatsiyada 9 baytli "Tarahhum birla qilg'il yo'lda qolganlarga nazzora, Sani ko'yingda yig'lab, oh urar majnuni bechora" bayti bilan boshlanuvchi oshiqona g'azali tahlil qilingan.

Firoqiy zamon nafasini chuqur his etgan shoirlar sirasiga kiradi. Shu bois uning she'riyatida tevarak atrofidagi hodisalarga munosabat, kamchiliklarga murosasizlik mavzusida ham yozgan talaygina she'rlari mavjud. Uning "Loy" radifli g'azali ayni shu masalada, ya'ni atrof-muhitdagi kamchiliklardan shikoyat mazmunida bitilgan hajviy she'rdir. Shoir Muqimiyda ham shu radif bilan ziynatlangan yumoristik g'azal bor. Firoqiy shu she'rining radifi, qofiyasi hamda vazniga monand qilib "loy" radifida g'azal bitgan. G'azal 9 bayt. Unga "Xo'qand loyiga" deb shartli sarlavha ham qo'yilgan. She'rning matla'si bunday:

Ne ajab yo'ldurki, odamni hayron qildi loy,
Qor-yomg'ir bir bo'lib, ko'blarni sarson qildi loy.

Loy ko'chalar o'z-o'zidan bu ahvolga kelib qolmagan. Birinchi navbatda, ko'chalarning qum-tuproqdan ekanligi, qarovsizligi, mahalla kishilaridan tortib hokimlikkacha bu ko'chadan xabar olmasliklari, ko'chalarni toza tutish, obod qilishga urinmasliklaridan shikoyat avvaliga yengilgina chiqadi. Hatto bu loygarchilikka tabiat ijiqliklari ham qo'shiladi. Shaharda-ki shu ahvol, qishloqlarda nima bo'ldi ekan, qabilidagi o'y lirik qahramonni xavotirga soladi.

Firoqiyning hajviy she'rlari ichida "Qalandarmiz" radifli g'azal ham bor. Mumtoz adabiyotimizda "qalandar" so'zi radifga chiqarilsa yoki bu so'z doirasida fikr berilsa, talqinlar tasavvufga borib tutashadi. Negaki "qalandar" istilohi tub ma'nosi bilan so'fiylikka tegishli. Masalan, Boborahim Mashrab, shoira Nodiraning she'rlari borki, ularning birida "qalandar" so'zi shundayligicha radifga chiqarilgan, ikkinchisida "qalandar bo'l" tarzidagi da'vati radifda berilgan²¹. Biroq o'tmishda soxta qalandarlar ham juda ko'p bo'lgan. Ular qalandarlikni o'ziga kasb qilib olib, tilanchilik qilib, buni o'zlarining tirikchiligiga aylantirib olganlar. Shoir ularning ana shu odatlarini o'z tillari orqali tanqid qiladi. Bu she'r "Sozanda va bozandalarga", deb sarlavhalangan. Sarlavhadan ko'rinib turibdiki, unda haqiqiy

²⁰ Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси. – Тошкент: Фан, 1983. – Б. 25.

²¹ Бобораҳим Машраб Мехрибоним қайдасан. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги НМУУ, 1990. – Б. 37.

qalandarlar emas, balki, musiqa va qo‘shiqdan ozgina xabardor bo‘lib olib, to‘yma-to‘y sanqiydigan ashulachilar va o‘yinchilarning xatti-harakatlari qoralangan.

Yoronlar, so‘rsangiz dunyoda bearmon qalandarmiz,

Kezib har yonda yurgan daydi-yu darxon qalandarmiz (84)

O‘zlarini bearmon qalandar, deya maqtanayotgan bu otarchilar vijdonlarini sotib, eshikma-eshik yurib (daydi-yu darxon), hamyonini pulga to‘ldirishlarini o‘z tillaridan oshkor qiladi. Ayniqsa, keyingi baytda ularning “Ajab sozanda, bozandamizkim, xalq aro mashhur”, deya avvaliga maqtanib, keyin “Sotib vijdonni pulga to‘ldirar hamyon qalandarmiz”, deyishlari ularning haqiqiy qiyofasini o‘quvchi ko‘z o‘ngida jonlantiradi.

Dissertatsiyamizning uchinchi bobi “Firoqiy she‘riyatining badiiy xususiyatlari” deb nomlangan bo‘lib, birinchi fasli “Shoirning lirik qahramon yaratish mahorati” tadqiqiga bag‘ishlangan. Lirik qahramon muayyan shoirning qalamkashlik iqtidori, uning bilim saviyasi, she‘rning muayyan sa‘jijasini aniq belgilashga ko‘mak beruvchi bir unsur sifatida, adabiyotshunoslik, xususan, she‘rshunoslikda muhim ahamiyat kasb etadi. Arastudan boshlangan, Gegel munosabat bildirgan, keyinchalik qator rus adabiyotshunoslari o‘zlarining qarashlarini turli rakurslarda bayon etib kelgan lirik qahramon bahsi bugungi kunda ham turli she‘rshunoslar asarlarida turlicha talqinlarni keltirib chiqaradi. Biri lirik subyekt, biri shoirning “men”i, yana boshqasi she‘riy asarda lirik qahramon obrazi hamda shoir obrazi borligini o‘tkazmoqchi bo‘lganlar.²² Lirik qahramonning kuchi shundaki, shoir o‘z she‘rida, faqat o‘zini emas, tevarak atrofidagi kishilar, voqea-hodisalar xususida so‘z yuritadi. O‘zining qalb prizmasidan o‘tkazadi va shu jarayonda o‘zining tuyg‘ularini she‘rxonga yuqtiradi. She‘rshunos U.To‘ychiyev yozganidek, “...lirikada ham inson yashaydi, o‘ylaydi, kechinadi; uning qanday odam ekanligi asosan ana shu o‘ylaridan, kechinmalaridan, so‘zlaridan ayon bo‘ladi...”²³. Do‘stmuhammad Firoqiyning lirik qahramoni hayotning turfa qiliqlaridan goh shodmon bo‘lgan, goh ranjigan, goh kuyungan, goh o‘yga tolgan bir qahramon sifatida namoyon bo‘ladi. Firoqiyning pand-nasihat yo‘g‘rilgan she‘larida lirik qahramon ulug‘ nosih sifatida ko‘zga tashlanadi. Quyidagi baytda musulmon dunyosi didaktikasi o‘z so‘zini aytgan. Keltirilgan tamsillar ham ayni shu didaktika mohiyatidan o‘sib chiqqan:

Gul agar uzmoqchisan gulzordin andesha qil,

Urmasun jismingga nish xordin andesha qil

E’tibor qilinsa, bu o‘rindagi tamsil (gul va uni uzmoqchilik) o‘z vazifasini to‘la-to‘kis bajargan. G‘azalning to‘rtinchi baytiga kelib, Firoqiy yana kishilarga til bilan, qo‘l bilan zulm qilishning katta gunoh ekanligiga ishora qiladi:

Hech kima ko‘rma ravo ozor-u, jabr-u, zulmini,

Dunyoda behad yomon ozoridan andesha qil.

²² Bular haqida qarang: Чернышевский Н.Г. Полн.соб. сочин. Т.III. – М., 1974. – Стр.455 – 457; Тынянов Ю.Н. Поэтика// История литературы. Кино. – М., 1977. Стр. 118; Мамажонов С. Поэзияда лирик қаҳрамон масаласи// Шарқ юлдузи, 1961. 6-сон; Шарафиддинов О. Замон, қалб, поэзия. – Тошкент, 1962. – Б.22-24; Теория литературы. Основные проблемы в историческом освещении// Роды жанры литературы. – М., 1964. Стр.181; Адабий турлар ва жанрлар. Уч томлик, II том. Лирика. – Тошкент: Фан, 1992. – Б.61-103.

²³ Адабий турлар ва жанрлар. Уч томлик, II том. Лирика. – Тошкент: Фан, 1992. – Б. 63.

Shu o'rinda, insonning ko'ngli Allohning ka'basi – bayti ekanligi yodga keladi. Shuni alohida ta'kidlashni istardikki, Hazrat Navoiygacha ham Sharq adabiyotida ko'ngilga shu tariqa ta'rif berish mavjud bo'lgan. Jaloliddin Rumi "Masnaviyi ma'naviy" sida ko'ngilni shunday ta'rif qilgan: "Tavofi bayti Xalil kori oson ast, Tavofi bayti Jalil kori mardon ast"²⁴, ya'ni "Ibrohim Xalilulloh bino etgan Ka'bani hamma ham tavof etishi mumkin. Biroq Allohning Ka'basi bo'lgan ko'ngilni tavof qilish mardlar ishidir".

Firoqiyning Ishq tarannum etilgan she'rlarida lirik qahramon an'anaviy adabiyotda shakllangan oshiq, Alloh oshig'i sifatida namoyon bo'ladi.

Visoling justijo'yin istamoqdin o'zga maqsad yo'q,
Biyobon qazoida oh urarman zori ovvora.

Shoir lirik qahramoni bu o'rinda Yorning visoli umidida xuddi Majnun kabi dod-u faryod qilib yurishi og'zaki va yozma adabiyotdagi ishqiy sarguzasht dostonlar qahramonlari kabi dasht-u biyobonlararo kezishlarini tamsil qilib, voqelikni bo'rttirishga harakat qilgan.

Firoqiyning ma'shuqa tasviri berilgan g'azallarida lirik qahramon modih sifatida namoyon bo'ladi. Shoir bir o'rinda "ko'z" so'zi o'rnida uning metaforik shakli bo'lgan "nargiz" so'zini qo'llaydi va bu bilan furqatona o'xshatish qiladi. Furqat "tortadur" radifli g'azalida ma'shuqaning qosh-ko'zlarini madh etish jarayonida "Ikki hindu bachadurkim, yondoshib yo tortadur"²⁵ degan bo'lsa, Firoqiy xuddi shunday tasvirni biroz soddaroq tarzda qo'llagan va natijada misralardagi ma'no har bir o'quvchi uchun yengilroq tushunish imkonini bergan:

Qaro nargizlaringmu piri dildo'z,
Otar o'q yosin ikki hindu bola.

Firoqiyning Hamza Hakimzoda tavalludining 70 yilligiga atab yozgan she'rida lirik qahramon modih sifatida namoyon bo'lgan:

Hayoting gulshanidan qoldurub bizlarga guldasta,
Yozib fikr jamoling naqsh etib borcha bardoshing.
Taajjub pesa birlan ham g'azal ham bir necha ro'mon,
O'qub ko'rgon degay ming ofarin har bir vatandoshing.

She'rdagi maqtoqlar orasida Hamza Hakimzodaning ijtimoiy faoliyati xususida so'z yuritgan Firoqiy, uning ko'plab badiiy asarlar – she'rlar, romanlar, pesalar yozganligini ham tilga olib o'tadi. Yana bir jihatni aytib o'tish kerakki, she'rda Firoqiy Hamza Hakimzodani o'zi bilan tengdosh ekanligini ham, unga madhiya bitish o'zining ham tengdoshlik, ham qalamkashlik burchi ekanligini qayd etishni ham unutmaydi:

Firoqiy madh avsofingni yozdi shunchakim, bir oz
Zamon shoirlarini jumlasidan sanga tengdoshing.

Shoirning voqeaband va hasbi hol she'riyatida lirik qahramon shoir "men"i bilan birlashib ketadi. Firoqiy o'zi yashagan davr mafkurasiga mos, zamonasozlik ruhida ham she'rlar yozgan. Uning "O'zbekiston qirqlikka", "Armiyachilarga", "O'zbekiston" she'rlarida shu hol kuzatiladi.

²⁴ Жалоліддин Румий. Маснавий. – Тошкент: Фафур Ғулом нашриёти. 2007. – Б. 98.

²⁵ Фурқат. Танланган асарлар. – Тошкент: Фафур Ғулом номидаги НМУУ, 1975. – Б.150.

Boqing ibrat ko'zi-la sheri mardlarga bu gulshanda,
Toqib ko'ksiga orden xalq ichida nomdor o'ldi.
Firoq, xajr, kulfat ketti bizdan shodmiz doim,
Butun dunyoga bizni baxtimizdan bu shior o'ldi.

Bizningcha, bunday mazmundagi she'rlar sho'ro davrida ham ko'hna ohanglarda ijod qilgan shoirning mafkura ta'ziyiqalaridan saqlanish yo'li bo'lsa kerak.

Uchinchi bobning ikkinchi fasli **“Firoqiy she'riyatida vazn, qofiya, badiiy san'atlar”** deb nomlanadi. Firoqiy o'zbek she'riyatida keng qo'llanilgan ramal, hazaj, mutaqorib, mujtass, muzore' bahrlaridan turli janrlardagi she'rlarida foydalangan. Natijada, uning she'rlarida musiqiylik hamda ta'sirchanlik ortgan. Bir so'z bilan aytganda, she'rlarning musiqaga tushishi vaznga bog'liq bo'lgani holda, Firoqiyning aksariyat she'rlari o'z musiqasi bilan tug'ilgan. Shundan bo'lsa kerak, shoirning bir qator she'rlari hofizlar tomonidan hozirgacha kuyga solib aytiladi.

Firoqiy she'riyatida muradif g'azallar borki, ularda qofiya chap tomonga siljiganligini kuzatish mumkin. Ayni shu holatda qofiyaning radifli kelishi, she'r mazmunini konkretlashtirishga hamda undagi ta'sirchanlik – poetik emotsiyani bir qadar kuchaytirganligini ko'rish mumkin. Firoqiyning Muqimiyga nazira sifatida bitgan bir she'rida radiflar kattagina bo'lib, she'rning umumiy leytmotivini bo'rttirishga bo'ysundirilgan:

Nigoro, manga jabringni farovon aylasang, mayling,
Raqibing birla doim bazmi xandon aylasang, mayling

Keltirilgan quyidagi ruboiyda barcha qofiyalar muqayyad. So'z borayotgan masalada qofiyalarga chiqarilgan har bir leksik birlik she'rning umumg'oyasini to'laqonli bo'lishini ta'min etgan:

Yaxshi odam bo'lmag'ay hargiz yomon,
Hech qachon bug'doy bo'lmaydir somon.
Kim yomonliq birla odat aylasa,
Yaxshi bo'lmas, o'lgunicha ul yomon.

Mazkur bandda “yomon-somon-yomon” so'zlari o'zaro qofiyadosh bo'lib kelmoqda. Shoir bu bandda “yomon” so'zini qofiyada ikki marta ishlatgan. Bunday takror she'rga qusur bo'lmagan, balki tazodning har bandda istifoda qilinishi qofiya bilan qo'shilib, she'rning umumiy ruhini, ya'ni nasihat ruhini kuchaytirishga xizmat qilgan. Firoqiy she'riyatidagi qofiyalar asosan to'q qofiyalardan iborat bo'lib, ular bayt va bandlarda ritmni bir xilligini saqlab, estetik vazifa bajargani holda, shoirning badiiy niyatini o'quvchi shuuriga yetkazishda alohida rol o'ynagan. Firoqiy qofiya san'atlariga ham e'tiborli bo'lganki, devondagi she'rlarning qator o'rinlarida zulqofiyatayn, zulqavofe', tarse'ni qo'llab, she'rlarining estetik yukini zalvorli chiqishini ta'minlay olgan.

Firoqiy she'riyatida ma'naviy, lafzi-yu va mushtarak san'atlar bir tomondan, muayyan she'rga fayz bergan bo'lsa, ikkinchi tomondan, shoir mahoratini belgilovchi unsur sifatida bo'y ko'rsatgan. Firoqiyning taxallusi ham xuddi

Gadoiy, Amiriy, Ado, Furqat, Yoriy, Zoriy, Cho‘lpon taxalluslari singari ittifoqqa qo‘l keladigan taxallus sanaladi:

Necha muddatdir Firoqingda kuyib bo‘ldim ado,
Sadqa bo‘lsin xasta jon maktubi insho birla kel.

Modomiki, gap shoir Firoqiyning badiiy san‘atlarni istifoda etishdagi mahorati haqida borayotgan ekan, uning bir g‘azalida ishlatilgan lisoniy birliklarning qanday san‘at vazifasida she‘rga fayz berayotganini ko‘zdan kechirish, bu borada muayyan xulosalarga kelish imkonini beradi.

Ey, pari gulchehra, gulzoringga otlangum kelur,
Zulfi mushking torig‘a har dam bog‘langum kelur.

G‘azalning matla‘ baytining sadrida nido san‘ati lirik qahramonning ma‘shuqaga murojaat etib, uning huzuriga bormoq umidini bayon etmoqda. Baytning realistik tasviri undagi istiora (“gulzoringga”)ning jonli va ishonarli chiqishini ta‘min etgan. Shunisi e‘tiborliki, mazkur istiorada ma‘shuqaning husnu jamolining hamma unsurlari mujassam. Qolaversa “otlangum” fe‘li ham baytning dastlabki misrasidayoq xalq tili va diliga yaqinlikni yuzaga keltirgan. Shu so‘zning sinonimi bo‘lgan “borishga shaylanmoq” fe‘li o‘rnida “otlanmoq” fe‘lining ishlatilishi oshiqning qat‘iyatini ko‘rsatishi bilan e‘tiborni tortadi. Ikkinchi misradagi “zulfi mushking” izofasi ma‘shuqaning sochlarining sifatini ayon etgan va keyingi o‘rinda kelgan “toriga bog‘langim kelur” mubolag‘asining ishonarli chiqishini ta‘minlagan. “Sochning toriga bog‘lanmoq” murakkab birikmasidagi “tor” so‘zi ham o‘ziga xos tashbeh vazifasida kelgan va baytning jozibasini ta‘minlagan. Va bu joziba keyingi baytlarda, ma‘shuqani vasf etuvchi tanosublar ketma-ketligini ta‘minlab bergan. Zero, baytdagi dastlabki tanosub ikkinchi baytdagi tashbehli tanosubning (“abro‘yi kamon”) yuzaga kelishiga turtki bergan bo‘lsa, “abro‘yi kamon” tanosubi yana bir tashbehli tanosub – “hanjari mujgon” tanosubiga yo‘l ochgan:

Ikki abro‘yi kamoning ko‘ksima otmoqda tir,
Hanjari mujgonlaring qatlig‘a jon bergum kelur.

Baytda mubolag‘a va jonlantirish birikib, ma‘shuqaning ramzan qattol husnu jamolini yoritishga xizmat qilgan. To‘g‘ri, ma‘shuqa oshiqqa oshkora tahdid qilayotgani yo‘q. Biroq ma‘shuqaning go‘zalligi shu qadar ta‘sirchanki, uning kipriklaridan otilgan o‘qlar (“tir”) oshiqning ko‘ksiga sanchilib, uning o‘limiga sabab bo‘lishi mumkin, degan mantiq, bu baytda yashiringan.

Chashmi mastingga azaldan menki bo‘lmishman asir,
Otashi har bir nigohing birla dog‘langum kelur.

Boburda “Usruk ko‘ziga toki ko‘ngul bo‘ldi muftalo, Hargiz bu telbani yana hushyor topmadim”²⁶ bayti bor. Firoqiy ham ma‘shuqaning ko‘zini “mast qiluvchi”, deb ta‘riflar ekan, tanosubni jonlantirish bilan uyg‘unlashtirib, uning ana shu mast qiluvchi nigohi huddi olov (otash) sifat oshiqni qattiq kuyishga rozi qiladi.

Ikki la‘ling qirmizu durdonayi daryo tishing,
Xush so‘z sehri ila asta dudog‘langum kelur.

²⁶ Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Девон. – Тошкент: 1993. – Б.69.

Keltirilgan baytda ma'shuqa lablari la'lga tashbeh qilinadi. Bu – an'ana. Deyarli hamma shoirida uchraydi. Biroq tanosub doirasida muttasil ketma – ketlikda istiora qilib, izofaviy birliklar shaklida uyushtirilganidan, qo'llangan bu tashbehlarning ta'sirchanligi anchayin kuchaygan. Chunki shoir ma'shuqaning tishlarini ham “durdonayi daryo”, ya'ni daryo durlari donasi tarzida tasvirlab beradi. Shu o'rinda Firoqiy ishlatgan “dudog'langum kelur” birikmasini bir topilma sifatida e'tirof etishga to'g'ri keladi. Bu – ma'shuqa labi bilan bog'liq. Bobur “Labing bag'rimni qon qildi, ko'zimdin qon ravon qildi, Nechun holim yomon qildi, men andin so'rorim bor”,²⁷ - deya lirik qahramon istagini iyhom orqali benihoya go'zal va ta'sirchan ifodalab bergan. Firoqiy ham iyhomga tayanadi. Bu vazifani zikr etilgan “dudog'langum kelur” qo'shma fe'li orqali chiroyli ifodalay olgan: “dudog'lanmoq” fe'lini “labidan bo'sa olmoq” hamda “duduqlanmoq” tarzida tushunish mumkin bo'ladi.

Navbatdagi baytda ham ma'shuqaning xipcha beli, pista dahani tanosub qilinadi. Bu tashbehlar ma'shuqaning “xush nazokati” bilan bog'lanadi. Mumtoz she'riyatda ma'shuqa belining sochlarining tolalariga mengzab mubolag'a qilish ko'p uchraydi. Xorazmiy “Muhabbatnoma”da “Bo'yung sarv-u sanubartek, beling – qil”²⁸, Lutfiy “Zulfining toricha yo'q beli...”²⁹ deb ma'shuqaning belini ifot qilganlari va noziklik mumtoz she'riyatda go'zallikning bir belgisi ekanligini ko'rsatganlar. Firoqiy esa, xalq tilida ko'p istifoda qilingan (“xipcha bel”) birikmadan ustalik bilan foydalangan holda ma'shuqaning go'zalligiga urg'u berishga muvaffaq bo'lgan. Shu baytda xalq iborasini (uzoqlashmoq) badiiy san'at darajasiga ko'tara olgan:

Xush nazokat, xipcha bel, pista dahaningni ko'rib,
O'zga jononlar saridin bir dam uzog'langum kelur.

Keyingi baytda istiora, tamsil va tashbeh, ayni chog'da husni ta'lil bir nuqtada kesishib keladi. “Sham'i vasling” – metafora bo'lib, ikki va undan ortiq ma'nolarga ishora qilib, visolning muqaddasligi, quyoshdek yorug'lik berib, qalbni nurlantirganligi, oshiqni zavq-u shavqqa to'ldirganligiga sabab bo'ladi. Zero, lirik qahramon tilidan berilgan xalqona ifoda “charog'lanmoq” so'zi oshiqqa juda munosib tushgan:

Sham'i vasling tegrasida aylanib parvonavor,
Parivash xusning ziyosi-la charog'langum kelur.

Mumtoz she'riyatda “it” timsoli ko'p uchraydi. “It” – vafo timsoli, sabr timsoli, boriga qanoat qilib, kecha-yu kunduz sohibiga ana shu vafodorlikni ko'rsatadi. Zarracha ham bevafoqlik qilmaydi. Navoiy “Qaro ko'zum...”³⁰ g'azalida “Itingga g'amzada jon rishtasini rasan qilg'il”, – deydi. Majnun Layli itining bo'yinlariga osilib, boshiga yuzini surtib, Layliga muhabbatini izhor etadi; Bobur “Sochining savdosi tushdi...”³¹ g'azalida to'g'ridan to'g'ri “itingdurman ... rahm

²⁷ Захириддин Мухаммад Бобур. Девон. – Тошкент: 1993. – Б.71.

²⁸ Хоразмий. Муҳаббатнома. – Тошкент: 1984. – Б. 142.

²⁹ Лутфий Сенсан севарим. – Тошкент: 1996. – Б. 109.

³⁰ Алишер Навоий. Тўла асарлар тўплами, 10 жилдлик. 1-жилд. Фаройиб ус-сиғар. – Тошкент: 2011. – Б.392.

³¹ Захириддин Мухаммад Бобур. Девон. – Тошкент: 1993. – Б.69.

etgil...” deb yolboradi; Payg‘ambarimiz hadislarining birida “Agar hayvonlar ham jannatga kiradigan bo‘lsa, “Kahf” surasidagi it birinchi bo‘lib kiradi”,³² - deya marhamat qiladilar. Mavlono Firoqiy ham keltirilgan iqtiboslarda ma‘shuqaning itiga berilgan ta‘rif-u tavsifdan kelib chiqqani holda, mubolag‘aviy tasvir yaratgan:

Firoqingda it kabi har dam vafodoring bo‘lib,
Sochlaring arqoniga har damki bog‘langum kelur.

“Sochlaring arqoni” birikmasi ham xalqona metafora. Bu o‘rinda ham Firoqiy ajoyib tashbeh ishlatgan. Mumtoz shoirlar ma‘shuqa sochlari toriga, sochlari rishtasiga singari tashbehlarni ko‘p qo‘llagan. Shoir Firoqiy bu o‘rinda “arqon” so‘zini qo‘llab, ham o‘rilgan sochlarini, ham qalin sochlarini madh etayotganligini ko‘rish mumkin.

Mumtoz she‘riyatda “ishq sahrosi”, “ishq vodiysi” singari istioralar ko‘p qo‘llanilgan. Firoqiy bu o‘rinda oshiqlik kechadigan “hudud”ni “ishq maydoni” deb xuddi kurash maydoniga o‘xshatadi. Kurash tushilganda kurashchining suyaklari qarsillab ketadi. Firoqiy bu holatni yanada bo‘rttirib, “Agar men ishq maydonida javlon qilsam, suyaklarim sinib, parcha-parcha bo‘lib, xuddi non ushoqlaridek sochilib ketguncha kurashishni istayman”, deb yangicha tashbeh qiladi:

Ishq maydonida javlon aylabon mardonavor,
Bandi-bandi ustixonimdan ushog‘langum kelur.

Keyingi bayt ko‘pgina ahli dillar, xususan soliki zohid Ibrohim Adhamni eslatadi. Chunki Ibrohim Adham (vafoti 777 m.) Balh hokimligidan, mol-u mulkidan, ahli ayollaridan voz kechib, tasavvuf yo‘lini tutgan. Tolibi sodiqligini namoyon etib, har qadamiga ikki rakatdan namoz o‘qib, 14 yilda Allohning baytiga yetib borgan.³³ Firoqiy tubandagi baytda shunga ishora qilmoqda. Bu o‘rinda “Himmat otiga minib yarog‘langum kelur” misrasi shunga ishora qiladi. Ayni chog‘da, misradagi “yarog‘lanmoq” fe‘lini ham xalqonaligini yoddan faromush qilmay, shoir mahoratiga yo‘yish mumkin:

Molu mulkimdan kechib, dildor uchun, ey do‘stlar,
Himmat otiga minib har dam yarog‘langum kelur.

Galdagi baytdagi talmeh va uning tarkibidagi tashbeh, o‘zini majnunsifat ishq olovida kuyganligini yangicha ifoda – “so‘zog‘lanmoq” – “jizg‘anak bo‘lib kuymoq” ifodasi bilan berilishi, shuningdek, Qays monand aql-u hushining boshidan uchib, faqat ma‘shuqa yodi bilan nafas olishi, el orasida Majnundek nom chiqarishi ham oshiqning ma‘shuqaga munosabatini dalillovchi manzara hosil qilgan. Va nihoyat, maqta‘ning boshidagi nido san‘ati (shoir o‘ziga murojaat etgan) hamda cho‘l-u biyobonlarni makon tutmoq niyati, yana yuqorida sanab o‘tilgan niyatlardan voz kechib, ma‘shuqa bilan “til topishish” istagida bo‘lishi (*o‘rtog‘langum kelur*) g‘azalga ko‘tarinki ruh baxsh etgan:

Aql-u hush boshdan uchib, mashhur bo‘lib Majnundek,
El aro jonon ko‘yida har dam so‘zog‘langum kelur.

³²Имом Бухорий. Саҳиҳи Бухорий. – Тошкент: 1993. – Б.69.

³³ Шайх Фаридиддин Аттор. Тазкират ул-авлиё. – Тошкент: 1983. – Б.139.

Ey, Firoqiy, istabon jononni bo‘l sahronavard,
Azmi jonimdan kechib ula o‘rtog‘langum kelur .

Yuqorida tahlilga tortilgan bir g‘azal orqali shoir Firoqiy mahoratining ayrim qirralariga to‘xtab o‘tdik. Shoirning deyarli barcha she‘rlarida betakror tashbehlar, ko‘chimning turfa ko‘rinishlari qo‘llangan. Yillar davomida shoirning iste‘dodi charxlangan va asarlarining badiiyati ta‘minlangan.

XULOSA

1. XX asr o‘zbek so‘z san‘ati tarixida mumtoz an‘analar asosida davom etgan she‘riyat namunalari kam sonli bo‘lsa ham mavjudligi adabiyotimizning katta yutug‘i hisoblandi. Mazkur davr adabiyotining sohibi devon shoirlaridan biri Do‘stmuhammad Firoqiydir. U Qo‘qon adabiy muhitining Hamza, Charxiy, Chustiy, G‘aribiy, Javdat kabi ijodkorlari safida kamol topdi.

2. Firoqiyning adabiy merosi bizgacha avlodlari qo‘lida saqlanayotgan ikki qo‘yozma devon, Qo‘qon adabiyot muzeyi fondidagi qo‘lyozma bayoz va parokanda varaqlardagi asarlar, Po‘latjon Qayumov tazkirasi tarkibidagi, matbuotda e‘lon qilingan va zamondoshlari devonlari tarkibidagi she‘rlar sifatida yetib kelgan. Shoirning hozircha 4684 misradan iborat 222 ta she‘ri mavjud.

3. Firoqiy o‘z ijodiy faoliyati davomida mumtoz she‘riyatimizning g‘azal, murabba, muxammas, masnaviy, ruboiy, ta‘rix, fard kabi janrlarida ijod qildi. Shuning barobarida, ushbu janrlarning o‘zbek adabiyotining yangi davrida shakliy-poetik va mavzu jihatidan takomillashuviga o‘z hissasini qo‘shdi.

4. Firoqiy ijodida g‘azal yetakchi o‘rin tutadi. Uning g‘azallari asosan 7, 9, 11 baytdan tashkil topgan. Shoir muvashshah-g‘azal, nazira-g‘azallarning go‘zal namunalarini yaratdi. Qo‘qon adabiy muhitigagina xos xususiyat sanalgan mushoiralar asosida yaratilgan mushoira-g‘azallar ham shoir ijodida ko‘p uchraydi.

5. Muxammas janri shoirning o‘zidan avval o‘tgan shoirlar she‘riyatiga muhabbatidan darak beradi. Firoqiy muxammaschilikning har ikki turida ham kattagina meros qoldirgan. Devonida jami 69 muxammas mavjud. Shoirning Navoiy, Fuzuliy, Amiriy, Muqimiy, Charxiy, Chustiy kabi shoirlarning g‘azallariga bog‘lagan taxmislari har jihatdan pishiq, mazmunan teran, shaklan mukammalligi bilan ham farq qiladi. Uning taxmislari ichida fors-tojik adabiyotining vakillari she‘rlariga bog‘langan muxammaslari ham borki, bu tarjima va taxmischilikni bir-biriga uyg‘unlashtirgan shoirning mahoratidan darak beradi. Mushoira-muxammas namunalari ham ilk marotaba Firoqiy devonida uchraydi.

6. Firoqiy diniy-tasavvufiy, axloqiy -ta‘limiy, ishqiy, ijtimoiy-siyosiy mavzularda ijod qildi. Shoirning ishqiy she‘rlarida birinchi navbatda Haq ishqiy kuylanadi. Bunday o‘rinlarda shoirning olam va odam, tiriklik mazmuni haqidagi falsafiy qarashlarini ham anglash mumkin. Shoirning axloqiy-ta‘limiy asarlarida o‘zlikni anglashga, xushyorlikka, ogohlikka da‘vat bor.

7. Firoqiyning ijtimoiy-siyosiy hamda hajviy asarlariga xos xususiyat tanqidning ustuvorligidir. Shoir hajviy asarlari bilan Muhyi, Muqimiy, Zavqiy, Charxiylar qatoridan o‘rin olgan bo‘lsa, diniy-tasavvufiy mavzularda asarlar

bitishda Mashrab, Xaziniylar yo‘lidan borib, ularga hamohang asarlar yaratdi. Hajviy she‘rlarida jamiyatdagi illatlarni hamda yaramas shaxslar tabiati va faoliyatidagi nuqsonlarni fosh etish ustuvorlik qiladi. Uning peyzaj xarakteridagi, adresatli she‘rlari ham o‘zbek she‘riyati xazinasini boyitdi.

8. Shoirning lirik qahramoni avvalo, oshiq qiyofasida namoyon bo‘ladi. Nosih, modih lirik qahramon o‘laroq kelgan she‘rlari ham talaygina. Shoirning voqeaband va hasbi hol she‘riyatida lirik qahramon shoir “men”i bilan birlashib ketadi. Firoqiyning “Do‘xtur Mo‘minjonga”, “Abduqodirga”, Birodar aziz Vohid Alijong‘a”, “Hakimzodaga”, “Marg‘ilonda Hakimjon mingboshiga”, “Tojikistonda birodaringa”, “Firoqiy Chustiyya” kabi she‘rlarining lirik qahramoni shoirning zamondoshlaridir.

9. Shoir mahorat bobida ham boshqa shoirlardan qolishmaydi. Uning she‘riyati vaznlari an‘anaviy bahrlarda bitilganligi, qofiyalarining pishiq-puxtaligi, radiflarning qofiyalar bilan birgalikda butunlik hosil qilib, she‘rning mazmun-mohiyatini ravon yuzaga chiqishini ta‘minlaganligi alohida e‘tirofga loyiqdir. Vazn, qofiyalarda uchrab qoladigan ayrim nuqsonlar esa, she‘rning umumsaviyasiga soya tashlarlik darajasida emas.

10. Firoqiy she‘riyatining soddaligi, xalq og‘zaki ijodiga xos shakllarning qo‘llanilishi, badiiy ifodaning ravon va ixcham, obrazliligi, g‘oya-mundarijaning xalqchilligi va bayondagi samimiylik asarlarining keng shuhrat tutishiga omil bo‘ldi.

Xullas, Do‘stmuhammad Firoqiyning hayot yo‘li, adabiy merosi, ularning g‘oyaviy yo‘nalishlari, shoirning ijod laboratoriyasini chuqur o‘rganish o‘zbek adabiyoti, xususan, o‘zbek mumtoz lirikasining XX asr manzarasini teran tasavvur etish imkonini beradi va o‘zbek adabiyoti yana bir shoir hamda uning adabiy merosi bilan boyiydi, deb dadil ayta olamiz.

**SCIENTIFIC COUNCIL DSc.03/30.12.2019Fil.05.02 ON AWARDING
SCIENTIFIC DEGREES AT FERGHANA STATE UNIVERSITY**

KOKAND STATE PEDAGOGICAL INSTITUTE

JORAYEVA GOZAL KADIROVNA

FIROQI AND HIS LITERARY HERITAGE

DISSERTATION ABSTRACT
for the doctor of philosophy (PhD) in Philological sciences

Fergana – 2025

The dissertation topic for the Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences has been registered with the Higher Attestation Commission under the number B.2022.2.PhD/Fil2433.

The research was carried out at the Kokand State Pedagogical Institute.

The abstract of the dissertation is posted in three languages (Uzbek, English, Russian (resume)) on the website of the Scientific Council (www.fdu.uz) and on the information and education portal "Ziyonet" (www.ziyonet.uz).

Scientific supervisor: **Kabilova Zebokhon Bakirovna**
doctor of philological sciences, professor

Official opponents: **Tojiboyeva Muqaddas Abdurahimovna**
doctor of philological sciences, professor

Khojanova Gulchehra
candidate of philological sciences


Lead organization: **Namangan State University**


The defense of the dissertation will be held at the meeting of the Academic Council numbered DSc.03/30.12.2019 Fil.05.02 at Fergana State University on "12" "04" at 10⁰⁰. (Address: 105 Burhoniddin Marginani street, Fergana city, 100151. Tel.: (998973) 244-57-82; e-mail: info@fdu.uz).


The dissertation can be viewed at the Information Resource Center of Fergana State University. 489
Address: 100151, Fergana city, Murabbiya street, 19. Tel.: (99873) 244-44-94.

Dissertation abstract was distributed on "25" "03", 2025.
(Register statement No. 17 dated "25" "03", 2025)




S.M. Muminov
Chairperson of the Scientific Council,
Doctor of Philological Sciences, Professor.


M.T. Zokirov
Secretary of the Scientific Council,
awarding scientific degrees, Candidate of
Philological Sciences, Professor


Z.A. Rahimov
Chairperson of the Scientific seminar
under the Scientific Council, Doctor of
Philological Sciences

INTRODUCTION (annotation of Doctor of Philosophy (PhD) dissertation)

Relevance and necessity of the dissertation topic. In world literature, there are many artists who, relying on their religious thinking, artistically reflected their socio-political, spiritual-educational, moral-educational, theological-mystical views. For many years, a number of studies on their life and creative work have been published, and this process is still ongoing. Scientific research shows that most of the peoples of the East lived in confusion with poetry, and poetry was ingrained in their blood from childhood. However, although most of the writers who created in the distant and recent past have entered the hearts of literature lovers with their artistically perfect works, their literary heritage has remained out of the attention of scholars for many years and has not become a source of research. As a result, the scientific study of the poetic skills of such poets based on primary sources has become one of the urgent tasks today.

In world literary studies, it is recognized that there are objective and subjective factors that have created this skill in determining the poetic skill of a certain writer, and this includes the socio-political reality of the time, the perception of his religious views in his literary heritage, his attitude to the literary tradition, and so on. This is why special attention is being paid to issues such as personal innovation and the penman's style. In particular, attention to the so-called classical poetry of Devan literature has changed radically, and certain shifts are taking place in this direction of research. This process is a comparative study of the divans of poets, determining the extent of their creative heritage, determining the genre structure of their poems, poetic skills of poets in different lyrical genres, the world of themes and images of their poetry, their description and classification, weight, rhyme, artistic number. is emerging in the aspect of researching his poetic skills in the use of horses.

From the first years of our national independence, it is known that the main ideological sources of our classical literature are the Holy Qur'an, Hadith, and the teachings of Sufism, and that all of these forms the basis of our national values. To date, poetry, which has been an immortal theme in our classical and modern literature for centuries, which is the fruit of mystical and worldly thought, has been opened for research based on new standards, in which the principle of neutrality towards all directions is a priority.

This wide opportunity is determined by the fact that the work of dozens of penmen, whose lives and works have not been studied for various reasons, is being studied in New Uzbekistan, in the period of the Third Renaissance. Among them, the existence of Dostmuhammad Firoqi, who took an important place among the poets of Kokand with his poetry in various subject areas, is noteworthy. After all, it is becoming a primary task to study the heritage of poets who have grown up among our people, in particular, to refer to the works of creators who are left out of the attention of literary scholars. Because the perfection of this literature will be determined only if the cultural and spiritual heritage of each nation is fully studied. In addition, the teachings of our honorable President, "Attention to literature and

art, culture is first of all attention to our people, attention to our future"³⁴ Firoqi's poetry, the study of the poetic nature of these poems in new models is one of the urgent issues.

No. PF-5850 of the President of the Republic of Uzbekistan dated October 21, 2019 "On measures to fundamentally increase the prestige and position of the Uzbek language as a state language", No. PF-126 dated May 24, 2017 Decrees "On additional measures to improve the system of preservation and research of ancient written sources", 2022 Decisions PF-60 dated January 28 "On the development strategy of New Uzbekistan for 2022-2026" and PQ-3271 dated September 13, 2017 "On the program of comprehensive measures to develop the system of publication and distribution of book products, increase and promote book reading and reading culture", This dissertation research serves to a certain extent the implementation of tasks defined in other regulatory legal documents related to this activity.

Compliance of the research with the priority directions of the development of science and technology of the republic. This study was carried out in accordance with the priority direction of the republic's science and technology development "social, legal, economic, cultural, spiritual and educational development of the information society and democratic state, development of innovative economy".

Level of study of the problem. "Unlike the literary environment of Herat, in the literary environment of Kokand, the weight of literary works created in Uzbek language and the number of Uzbek-speaking poets increased. As a result, during this period, more than 20 master Uzbek poets made a valuable contribution to the enrichment of our classical poetry. But the work of most of the prophets is still waiting for its researchers."³⁵

Now, interest in the literary environment of Kokand, which is a special phenomenon in the history of Uzbek literature, discovering its creators, identifying the leading principles of this literary environment, researching the ideological and artistic features of the created works is a constant focus of literary studies.

Academician Aziz Qayumov is undoubtedly the scientist who created a fundamental study of the Kokand literary environment.³⁶

